

AKROM MALIKNING “HALQA” QISSASIDA INTERTEKSTUALLIK

Aziza Safarova Kamoliddin qizi

Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili ta’lim yo‘nalishi

3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Sayyora Zaitovna Raimova

Annotatsiya: Ushbu maqolada Akrom Malik qalamiga mansub “Halqa” asarida intertekstuallikdan foydalanishga e’tibor qaratilgan. “Halqa” qissasining zamonaviy o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rni. Yozuvchining badiiy mahorati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: axloqiy-tarbiyaviy asar, kitob g‘oyasi, intertekstuallik, arxitektonika, obraz.

Zamonaviy o‘zbek adabiyoti asrida yaratilayotgan asarlar ko‘p. Ammo ular orasida kitobxonlar e’tirofiga sazovor bo‘layotgan axloqiy-tarbiyaviy kitoblar soni barmoq bilan sanarli. Shunday asarlar qatoriga ijodkor Akrom Malikning 2021-yilda nashr etilishiga qaramay ko‘plab kitobsevarlar qalbidan joy egallashga ulgurgan “Halqa” qissasini hech ikkilanmay kiritishimiz mumkin. Ushbu qissa diniy asar emas, balki din bor bo‘lgan badiiy asardir. U ma’lum bir davrdagi voqealarnigina qamrab olmagan. Shuning uchun uni mutolaa qilgan odam xuddi o‘z zamonasidagi yoki o‘tmishdagi voqealarni ko‘rayotgandek bo‘laveradi. Qissadagi voqealar Afg‘oniston, Suriya, Hindiston, Uyg‘ur, Serbiya kabi bir necha mamlakatlarda bo‘lib o‘tadi. Bu bilan muallif **kitob g‘oyasi** bo‘lmish musulmonlarning bugungi kundagi muammolari va yechimlari bir jamiyatgagina emas, balki butun insoniyatga doxil ekanligini ishora qiladi. Asar **syujeti** jurnalist Jozef va Annaning musulmonlar hayotini o‘rganishi asosiga qurilgan. Asar **arxitektonikasi** esa Sharq mumtoz adabiyotiga xos bo‘lib, qahramonlar tilidan hikoya qilishga asoslangan. Qissaning bosh qahramonlari Abdulloh Yorqin, Hojar, Shafiqa, Anjelina, Sabriniso, Muhammad Tolha kabi turli millat vakillari bo‘lsa-da, ular birlashib qalban bir inson, mehr-shafqat, go‘zal xulq, sabr singari fazilatlar jamlangan musulmon obrazini gavdalantirgan. Ular tilidan so‘zlangan hikoyalar esa bir manzilga - haqiqiy komil inson bo‘lish manziliga yetaklaydi, go‘yo.

Qissada **intertekstuallik** haqida so‘z borganda yozuvchi boshqa matnlardan ham unumli foydalangan. Intertekstuallik-barcha matnlarga xos bo‘lib, ham nasriy, ham nazmiy turdagi asarlarda uchraydi. Bu tushunchaga adabiyotshunos Dilmurod Quronovning “Adabiyotshunoslik lug‘ati” da quyidagicha ta’rif berilgan: “Intertekstuallik (lot. **Inter**-aro, **textum**- to‘qima, mato;matn) -fanga fransuz filologi Yu. Kristeva kiritgan termin. Unga ko‘ra, har qanday matn avval mavjud bo‘lgan matnlarni transformatsiya qilgan holda o‘ziga singdirgan sitatalar majmuidir”.

Qissaning 30 dan ortiq o'rnida bu hodisaga duch kelamiz. Turkiy adabiyot cho'qqisi bo'lgan - Navoiy, Bobur, Rumi va Uyg'ur shoiri Abdurahim O'tkir ijodi bilan birga, Muqaddas Qur'on oyatlari, payg'ambarimiz so'zlari- hadislar, Qur'ondagi qissalardan intertekst sifatida foydalanilgan. Ular kitobning badiiy, axloqiy-tarbiyaviy qiymatini yuksaltirgan. Shuningdek, "Halqa" qissasida Allohning 37 ismini ham uchratish mumkin.

Akrom Malik hozirda asrlar oshib kelayotgan Navoiy asarlarini sharhlash ustida ish olib bormoqda. "Halqa" asarida bu jarayon Navoiy asariga ikki marta murojaat qilishi orqali ko'zga tashlanadi:

"Boyazid Bistomiy qayg'uda ekan, shogirdi undan buning boisini so'radi. "Olamga boqib, biror odamni ko'rmadim", -dedi Boyazid Bistomiy. Shogird gustoxlarcha:" Axir o'zingiz ham olam ahlidansiz! Siz ham odam emasiz?!"-dedi.

"Ey g'ofil!-dedi Boyazid Bistomiy.-Inson iymon bilan o'lmasa, u odam emasdir. Biror banda iymon ila Allohning huzuriga boradimi, yo'qmi bilmaydi. Shunday ekan, men qanday xursand bo'layin? Tiriklar orasida iymon ila Allohga borajak biror kishini bilmasman, bilmay turib, kimni odam deb atay?!".

Bu hikoyat "Hayrat ul-abror" dostonining 22-bobidan olingan bo'lib, haqiqiy iymon haqidagi hikoyatdir. Yozuvchi Akrom Malik bob sarlavhalarini tanlashda ham intertekstuallikka murojaat etgan. U shoh va shoir Boburning:

Tole yo'qki, jonimg'a balolig' bo'ldi,
Har ishniki ayladim, xatolig' bo'ldi.
O'z yerni qo'yib, **Hind sori yuzlandim,**
Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.-

ruboiysidagi "**Hind sori yuzlandim**" jumlasini sarlavha qilib oladi va asardagi o'sha bobning mohiyatini ochib berishga intiladi. Muallif mumtoz asarlardagi parchalarni intertekst qilib kiritishining sababi asl adabiyot Qadim Sharq manbalarimizda mavjudligiga bir ishora bo'lgan, desak mubolag'a bo'lmaydi.

"Halqa" qissasining yana bir o'rnida Luqmoni Hakim bilan bog'liq shunday ibratli rivoyat ham uchraydi:

"Luqmoni Hakimdan so'radilar: "Siz bunday go'zal xulqni qanday qo'lga kiritdingiz?"

Luqmoni Hakim aytdi: "Badxulqlarning qilgan ishlarini teskarisini qildim va xulqim go'zallashdi".

Darhaqiqat, amallarimizni yaxshilash uchun atrofda ko'zgu ko'p. Odamlarning nuqsonlarini olamga jar solgandan ko'ra o'sha nuqsonlarni o'zimizdan izlab topib, bartaraf etish maqsadga muvofiq.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, "Halqa" qissasini yozishdan muallifning asosiy maqsadi- kitobxonlar e'tiborini makon yoki zamonga qaratish emas, balki jamiyat, insonlar muammosiga jalb qilmoq, shuningdek Haq yo'lga chorlamoqdir. Bu

yo'lga esa faqat haqiqiy ilm-ma'rifat orqali yetishish mumkin. Ushbu qissani o'qir ekansiz, din va adabiyotni bir-biridan ayro tasavvur etish murakkabligini tushunib yetasiz. Zero, muallif Akrom Malik aytganidek: "Dindan ayro adabiyot o'limga mahkumdir".

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akrom Malik. "Halqa" qissasi. Toshkent. "Tamaddun" nashriyoti. 2022. 4-nashr.
2. Bahodir Karim. O'zbek adabiy tanqidi. Antologiya. Toshkent. 2011.
3. Dilmurod Qur'onov va b. Adabiyotshunoslik lug'ati. Toshkent. 2013.
4. Homidova M. Mumtoz matnlarda intertekstuallik (Navoiy ijodi misolida). O'zA ilm fan bo'limi elektron jurnali, 2022 yil 8-son.